

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI QURILISH VAZIRINING
BUYRUG‘I
LOYIHA-TADQIQOT ISHLARINING QIYMATINI ANIQLASH TARTIBI
TO‘G‘RISIDAGI NIZOMNI TASDIQLASH HAQIDA**

[O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2019-yil 9-sentabrda ro‘yxatdan o‘tkazildi, ro‘yxat raqami 3180]

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008-yil 29-apreldagi PQ-847-son “Loyiha-tadqiqot tashkilotlari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori hamda 2019-yil 27-fevraldagi F-5445-son “2019-yilda vazirliklar, davlat qo‘mitalari va boshqa davlat boshqaruvi organlari faoliyati samaradorligini hamda maqsadli vazifalarga erishishlarini baholashning asosiy mezonlari to‘g‘risida”gi farmoyishiga asosan buyuraman:

1. Loyiha-tadqiqot ishlarining qiymatini aniqlash tartibi to‘g‘risidagi nizom ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Davlat arxitektura va qurilish qo‘mitasining 2008-yil 10-noyabrdagi 22-son “Loyiha-tadqiqot ishlarining qiymatini aniqlash tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi qarori (ro‘yxat raqami 1879, 2008-yil 9-dekabr) (O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2008-y., 50-son, 499-modda) o‘z kuchini yo‘qotgan deb topilsin.

3. Mazkur buyruq rasmiy e‘lon qilingan kundan e‘tiboran kuchga kiradi.

Vazir o‘rinbosari K. TULYAGANOV

Toshkent sh.,
2019-yil 19-avgust,
396-son

O‘zbekiston Respublikasi qurilish vazirining 2019-yil 19-avgustdagi 396-son buyrug‘iga
ILOVA

**Loyiha-tadqiqot ishlarining qiymatini aniqlash tartibi to‘g‘risidagi
NIZOM**

Mazkur Nizom O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008-yil 29-apreldagi PQ-847-son “Loyiha-tadqiqot tashkilotlari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori hamda 2019-yil 27-fevraldagi F-5445-son “2019-yilda vazirliklar, davlat qo‘mitalari va boshqa davlat boshqaruvi organlari faoliyati samaradorligini hamda maqsadli vazifalarga erishishlarini baholashning asosiy mezonlari to‘g‘risida”gi farmoyishiga asosan loyiha-tadqiqot ishlarining qiymatini aniqlash tartibini belgilaydi.

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Mazkur Nizom talablari markazlashtirilgan manbalar, davlat boshqaruv organlari va davlat korxonalari mablag‘lari hisobiga moliyalashtiriladigan qurilish obyektlari uchun loyiha-tadqiqot ishlari qiymatini aniqlashda qo‘llaniladi.

Ushbu Nizom talablari boshqa manbalar hisobiga moliyalashtiriladigan qurilish obyektlari uchun tavsiyaviy xaraktyerga ega.

2. Buyurtmachi tomonidan loyiha-tadqiqot ishlarining qiymati loyiha-tadqiqot hujjatlarini (loyiha, ishchi loyiha va ishchi hujjatlar) ishlab chiqish, shuningdek ishchi loyihalashdan oldingi texnik-iqtisodiy asoslar (bundan buyon matnda TIA deb yuritiladi) hamda texnik-iqtisodiy hisob-kitob (bundan buyon matnda TIHK deb yuritiladi) bosqichlarida mazkur Nizom asosida aniqlanadi.

3. Loyiha-tadqiqot ishlarining joriy narxlarda belgilangan qiymati loyiha-tadqiqot ishlarining ijrochisini aniqlash uchun davlat xaridlarini amalga oshirishda boshlang'ich qiymat sifatida qo'llaniladi.

4. Loyiha-tadqiqot hujjatlarini ishlab chiqqan tashkilot loyiha-tadqiqot hujjatlarini mazkur sohada tegishli vakolatga ega bo'lgan ekspertiza organlarining ekspertiza xulosasini olishda, qurilish ustidan mualliflik nazoratini o'tkazishda hamda tugallangan qurilish obyektlarini foydalanishga qabul qilib olish bo'yicha komissiyalari yig'ilishlarida ishtirok etadi.

2-bob. Loyiha-tadqiqot ishlarining qiymatini aniqlash

5. Buyurtmachi tomonidan loyiha-tadqiqot ishlarining boshlang'ich qiymatini aniqlashda quyidagi parametrlar loyihalashtirish topshirig'ida nazarda tutilishi lozim:

Vazirlar Mahkamasining 2016-yil 22-yanvardagi 15-son **qarori** bilan tasdiqlangan Obyektlarning loyiha-qidiruv va qurilish-montaj ishlari bo'yicha murakkablik toifalari klassifikatoriga muvofiq murakkablik darajasi;

mazkur Nizomning **1-ilovasiga** muvofiq Loyiha-tadqiqot hujjatlarini ishlab chiqishdagi murakkab sharoitlar uchun qo'llaniladigan koeffitsiyentlar;

mazkur Nizomning **2-ilovasiga** muvofiq Qurilishning umumiy qiymatida uskuna qiymatining solishtirma tarkibiga bog'liq holda qurilishning hisob bahosini aniqlash uchun pasaytiruvchi koeffitsiyentlarning mavjudligi;

loyiha-tadqiqot hujjatlarini manfaatdor idoralar bilan kelishilganligi.

6. Loyiha-tadqiqot ishlarining qiymati qurilish obyekti narxi va murakkablik darajasiga qarab buyurtmachi tomonidan aniqlanadi. Bunda qurilish obyekti narxi tarkibiga quyidagilar kiritiladi:

montaj talab etuvchi jihozlarga bo'lgan xarajatlar;

qurilish materiallari, buyumlari va konstruksiyalariga bo'lgan xarajatlar;

ijtimoiy sug'urtalash hisobini inobatga olgan holda asosiy mehnat haqiga ketadigan xarajatlar;

mashina va mexanizmlardan foydalanish xarajatlari;

ishlab chiqarish xususiyatiga ega boshqa xarajatlar;

puqratchining zarur foydadan, shu jumladan puqrat ishlari (xizmatlar) bozori konyunkturasidan kelib chiqib shakllantiriladigan majburiy to'lovlar va ajratmalardan iborat boshqa sarf-xarajatlari;

obyektlar qurilishini sug'urtalash xarajatlari;

buyurtmachining loyiha-tadqiqot ishlari, ekspertiza, davlat xaridlarini amalga oshirish, texnik nazorat xarajatlaridan, obyekt qurilishi bilan bog‘liq boshqa sarf-xarajatlari;

navbatdagi yilda qurilish narxlarining prognozlangan indeksidan kelib chiqib aniqlanadigan xatarni qoplash uchun xarajatlar.

7. Buyurtmachi tomonidan ishchi loyihani ishlab chiqish qiymati quyidagi formula bo‘yicha aniqlanadi:

$S_p = S_b \times L$, bunda:

S_p — ishchi loyihaning joriy narxlardagi qiymati;

S_b — obyekt qurilishining joriy narxlardagi qiymati;

L — mazkur Nizomning 3-ilovasiga muvofiq ishchi loyiha qiymatining hisoblash mezon.

8. Turli bosqich va davrlarda loyihalashdan oldingi-asoslanma va ishchi hujjatlarni ishlab chiqishning miqdoriy qiymati mazkur Nizomning 4-ilovasiga muvofiq aniqlanadi.

9. Loyiha-tadqiqot qiymatini aniqlashda ikkita yoki undan ortiq murakkablashtiruvchi omil mavjud bo‘lsa, koeffitsiyent ularning har biriga alohida qo‘llaniladi. Bunda umumiy muvofiqlash koeffitsiyenti quyidagi formula bo‘yicha aniqlanadi:

$K_c = 1 + \sum N$, bunda:

K_c — umumiy muvofiqlash koeffitsiyenti;

$\sum N$ — bir turga qo‘llaniladigan muvofiqlash koeffitsiyentlarining kasr qismlari (verguldan keyingi) yig‘indisi.

10. Majmualardan tashqaridagi ayrim obyektlarni loyihalashda foydalanishga tayyor bo‘lgan ko‘p marotaba qo‘llaniladigan loyihalardan foydalanilganda (loyihalash topshirig‘iga muvofiq), ishlar qiymati quyidagi koeffitsiyentlarni qo‘llagan holda umumiy qoida bo‘yicha aniqlanadi:

poydevor yechimlarni qayta hisoblamasdan — 0,4;

poydevor yechimlarini qayta hisoblaganda — 0,6;

poydevor va yer ustki qismi yechimlarini qayta hisoblaganda — 0,7.

11. Tugallangan qurilishning loyiha va haqiqiy o‘lchamlari qiymati obyektning dastlabki qiymatiga nisbatan 1,5 baravaridan yuqori yoki kamni tashkil etganda loyiha-tadqiqot ishlarining qiymati qayta hisoblab chiqiladi, boshqa holatlar bundan mustasno.

12. Loyiha-tadqiqot ishlarining to‘liq qiymati quyidagi formulaga ko‘ra aniqlanadi:

Bir bosqichli loyihalashda:

$S_f = S_w + S_e$, bunda:

S_f — loyiha-tadqiqot ishlarining joriy narxlardagi to‘liq shartnomaviy qiymati;

S_w — ishchi loyihaning barcha mezonlarni inobatga olgan joriy narxlardagi qiymati.

S_e — ishchi loyiha tarkibidagi hisobga olinmagan ishlarning qiymati.

Ikki bosqichli loyihalashda:

$S_f = S_{bs} + S_{wp} + S_e$, bunda:

S_f — loyiha-tadqiqot ishlarining joriy narxlardagi to‘liq shartnomaviy qiymati;

S_{bs} — asoslanma qismining joriy narxlardagi qiymati;

S_{wp} — ishchi hujjatlarining joriy narxlardagi qiymati;

S_e — ishchi loyiha tarkibidagi hisobga olinmagan ishlarning qiymati.

“Ishchi loyiha” ikki bosqichli loyihalash qiymatini hisoblashda asos qilib olinadi.

13. TIA, TIHK va boshqa bosqichlarning (jumladan, dastlabki eskiz loyihalari) shartlari loyihalashtirish topshirig‘ida boshqacha nazarda tutilgan hollarda, ishlab chiqishdagi qiymat quyidagicha hisoblanadi:

$S_f = S_{bs} + S_e$, bunda:

S_f — loyiha-tadqiqot ishlarining joriy narxlardagi to‘liq shartnomaviy qiymati;

S_{bs} — asoslanma qismining joriy narxlardagi qiymati;

S_e — ishchi loyiha tarkibidagi hisobga olinmagan ishlarning qiymati.

14. Loyiha-tadqiqot ishlari qiymatini shakllantirish mazkur Nizomning [5-ilovasiga](#) muvofiq Qurilishning taxminiy qiymatini aniqlashga doir qisqacha tavsiyalar asosida amalga oshiriladi.

15. Loyiha-tadqiqot ishlarining qiymatini hisoblashda ko‘zda tutilmagan ishlar qiymatini aniqlash mezonlari mazkur Nizomning [6-ilovasiga](#) muvofiq amalga oshiriladi.

16. Loyiha-tadqiqot ishlari qiymatini aniqlash mazkur Nizomning [7-ilovasiga](#) muvofiq namunada amalga oshiriladi.

17. Loyiha tashkilotlari o‘zining ichki imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda loyiha ishlari qiymatini aniqlashda chegirmalar belgilash imkoniyatiga ega.

3-bob. Loyiha-tadqiqot ishlarining muddatlari

18. Buyurtmachilar markazlashtirilgan manbalar hisobidan amalga oshiriladigan loyihalar bo‘yicha loyiha-qidiruv ishlarining manzilli ro‘yxati belgilangan tartibda tasdiqlangandan so‘ng, quyidagi birlamchi-ruxsat beruvchi hujjatlarni ikki hafta muddatda loyiha tashkilotlariga yetkazishlari lozim:

tuman (shahar) hokimining yer uchastkalarini ajratish yoki rekonstruksiya (kapital ta‘mirlash) to‘g‘risidagi qarori;

bino va inshootlarni rekonstruksiya qilish va kapital ta‘mirlashda nuqson dalolatnomalari;

loyihalashtirish topshiriqlari.

19. Buyurtmachilar tomonidan birlamchi-ruxsat beruvchi hujjatlar taqdim etilganidan so‘ng, ikki oy muddatda quyidagi tadbirlar amalga oshiriladi:

arxitektura-rejalashtirish topshirig‘ini ishlab chiqish;

rekonstruksiya qilinadigan va kapital ta'mirlanadigan binolar va inshootlarning texnik holatini o'rganish;

mahalliy hokimlikning binolarning inventarizatsiyasi materiallari, mavjud bino va inshootlarni buzish va kompensatsiya usullari ko'rsatilgan qarori;

loyihalashtirish uchun muhandislik-texnik izlanishlarni bajarish (loyihalashtiriladigan maydon bo'yicha 1:500 masshtabda, tashqi tarmoqlar bo'yicha 1:1000 yoki 1:500 masshtabda topografik xaritalar va muhandislik-geologiya xulosasini tayyorlash);

belgilangan tartibda tender (tanlov) hujjatlarini tayyorlash va tasdiqlash.

20. Buyurtmachi va loyiha tashkiloti o'rtasida shartnoma tuzishda mazkur Nizom talablari inobatga olinishi lozim.

Buyurtmachi va loyiha tashkiloti o'rtasidagi shartnoma buyurtmachi tomonidan qisman va/yoki to'liq moliyalashtirish ochish uchun asos hisoblanadi.

21. Loyiha tashkilotlari loyiha-tadqiqot hujjatlarini shartnomada ko'rsatilgan muddatda ishlab chiqilishini ta'minlashlari lozim.

Loyiha-tadqiqot ishlarining loyihalashtirish topshirig'ida aniq ish hajmlarini hisobga olgan holda quyidagi muddatlarda belgilanadi:

kapital ta'mirlash obyektlari bo'yicha — 1,5 oydan ko'p bo'lmagan;

rekonstruksiya obyektlari bo'yicha — 3 oydan ko'p bo'lmagan;

namunaviy loyihalar va qayta (bazaviy) qo'llaniladigan loyihalar asosida yangi qurilayotgan obyektlar bo'yicha — 3-4 oydan ko'p bo'lmagan;

yirik obyektlar qurilishi va rekonstruksiyasi bo'yicha — 4 oydan ko'p bo'lmagan.

22. Buyurtmachi tomonidan loyiha-tadqiqot ishlari monitoringi buyurtmachi va loyiha tashkiloti o'rtasida shartnomaga asosan loyiha-tadqiqot ishlarini bajarish grafigi asosida olib boriladi.

23. Buyurtmachi tomonidan tayyor bo'lgan loyiha-tadqiqot hujjatlari belgilangan tartibda mazkur sohada tegishli vakolatga ega bo'lgan ekspertiza organlariga topshiriladi.

4-bob. Yakuniy qoidalar

Oldingi tahrirga qarang.

24. Mazkur Nizom talablari buzilishida aybdor bo'lgan shaxslar qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda javobgar bo'ladilar.

(24-band O'zbekiston Respublikasi adliya vazirining 2021-yil 28-iyuldagi 16-mh-sonli buyrug'i (ro'yxat raqami 3313, 28.07.2021-y.) tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 28.07.2021-y., 10/21/3313/0724-son)

25. Ushbu Nizom O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi, Iqtisodiyot va sanoat vazirligi bilan kelishilgan.

Moliya vazirining birinchi o'rinbosari T. ISHMETOV

2019-yil 19-avgust

Iqtisodiyot va sanoat vaziri B. XODJAYEV

2019-yil 19-avgust
Loyiha-tadqiqot ishlarining qiymatini aniqlash tartibi to'g'risidagi nizamga
1-ILOVA

**Loyiha-tadqiqot hujjatlarini ishlab chiqishdagi murakkab sharoitlar uchun
qo'llaniladigan koeffitsiyentlar**

T/r	Loyiha-tadqiqot hujjatlarini ishlab chiqishdagi murakkab sharoitlar	Loyiha-tadqiqot hujjatlarini ishlab chiqishdagi murakkab sharoitlar uchun qo'llaniladigan koeffitsiyentlar
1.	Obyekt xususiyatlarining o'ta noyobligi (innovatsion texnologiyalar asosida)	1,5
2.	Ko'p marotaba qo'llaniladigan obyektlarni loyihalash, loyihalash uchun asos materiallarni tayyorlash, eksperimental loyihalarni ishlab chiqish	1,4
3.	Maydonchaning hisob bo'yicha zilzilaga chidamliligi (9 ball)	1,2
4.	Tarixiy binolar hududida quriladigan obyektlar	1,3
5.	Tarixiy obyektlarni qayta tiklash	1,4
6.	Faoliyat yurituvchi korxonalarida qayta tiklash (ishlab chiqarish faoliyati bilan bog'liq obyektlar uchun)	1,3
7.	Mavjud bo'lgan bino va inshootlarning qurilish konstruksiyalarini kuchaytirish loyihalari	1,2
8.	Loyihalarni BIM (Building Information Management) texnologiyalari asosida bajarish	2,0
9.	"Fast track" usulida loyihalashtirish	1,2

Loyiha-tadqiqot ishlarining qiymatini aniqlash tartibi to'g'risidagi nizamga
2-ILOVA

**Qurilishning umumiy qiymatida uskuna qiymatining solishtirma tarkibiga bog'liq holda
qurilishning hisob bahosini aniqlash uchun pasaytiruvchi koeffitsiyentlar**

T/r	Qurilishning umumiy qiymatida uskuna qiymatining solishtirma tarkibi	Qurilishning umumiy qiymatida uskuna qiymatining solishtirma tarkibiga bog'liq holda qurilishning hisob bahosini aniqlash uchun pasaytiruvchi koeffitsiyentlar
1.	25% gacha	1,0
2.	25%	0,8
3.	50%	0,65
4.	70%	0,5
5.	90% va undan ortiq	0,4

Izoh: oraliq qiymatlar interpolatsiya yo'li bilan aniqlanadi.

Loyiha-tadqiqot ishlarining qiymatini aniqlash tartibi to'g'risidagi nizamga
3-ILOVA

Ishchi loyihani ishlab chiqish qiymatining hisoblash mezonlari

T/r	Obyekt qurilishining joriy narxlardagi qiymati (bazaviy hisoblash miqdorida)	Loyiha ishlari qiymatining hisoblash mezonlari, murakkablik darajasiga ko'ra qurilish qiymatiga nisbatan % gacha		
		I	II	III

1.	500 baravarigacha	5,0	---	---
2.	1 000 baravarigacha	4,5	5,0	---
3.	2 500 baravarigacha	4,0	4,7	5,0
4.	3 500 baravarigacha	3,5	4,4	4,7
5.	5 000 baravarigacha	3,0	4,1	4,4
6.	10 000 baravarigacha	2,7	3,8	4,1
7.	25 000 baravarigacha	2,5	3,5	3,8
8.	50 000 baravarigacha	---	3,2	3,5
9.	75 000 baravarigacha	---	2,9	3,3
10.	100 000 baravarigacha	---	2,5	3,1
11.	200 000 baravarigacha	---	---	3,0
12.	300 000 baravarigacha	---	---	2,8
13.	400 000 baravarigacha	---	---	2,6
14.	500 000 baravarigacha va ortiq	---	---	2,5

Izohlar:

1. Obyekt qurilishining joriy narxlardagi qiymatini aniqlash maqsadida obyektlarni loyihalash va qurishning chegaralari quyidagicha belgilanadi:

komplekslar uchun (ikki va undan ortiq bino va inshootlardan iborat obyektlar uchun) — ajratilgan yer maydoni chegarasida;

alohida bino va inshootlar uchun — bino va inshootning chegarasini belgilovchi konstruksiyalarning, shu jumladan, binolarning ko'priklari, muhandislik jihozlari tizimlarini chiqarish va kiritish joylaridagi tashqi konturlari ichida.

2. Hisoblash mezonining oraliq miqdorlari vertikal qatordagi bir-biriga eng yaqin bo'lgan ikkita ko'rsatkich interpolatsiya yo'li bilan aniqlanadi.

3. Ishchi loyihani ishlab chiqish qiymatini hisoblashda quyidagi ishlar hisobga olinmagan:

konstruksiyalar va ishlarni bajarishning o'ta murakkab usullari qo'llaniladigan obyektlarni loyihalash vaqtida maxsus yordamchi inshootlar, moslamalar, qurilma va uskunalarining ishchi chizmalarini ishlab chiqish (bu ishlar loyihalashtirish topshirig'ida aks ettirilgan bo'lishi zarur);

zavodda ishlab chiqariladigan metall konstruksiyalar va texnologik quvur o'tkazgichlarning mufassal chizmalarini, andozasiz va nostandart jihozlarni konstruktorlik hujjatlarini ishlab chiqish (shu jihozlarni konstruksiyalashga bo'lgan loyihalash topshiriqlari bundan mustasno);

buyurtmachi topshirig'iga binoan qo'shimcha ishlarni bajarish;

texnik ko'rik va o'lchov ishlarini bajarish.

Mazkur ilovada keltirilgan obyektlar qurilishining joriy narxlardagi qiymatida qo'shilgan qiymat solig'i e'tiborga olinmagan.

Loyiha-tadqiqot ishlarining qiymatini aniqlash tartibi to'g'risidagi nizomga

4-ILOVA

Turli bosqich va davrlarda loyihalashdan oldingi-asoslanma va ishchi hujjatlarni ishlab chiqishning miqdoriy qiymati

T/r	Loyiha-tadqiqot hujjatlarni ishlab chiqish bosqichlari	Ishchi loyihani ishlab chiqishga nisbatan ulush miqdoridagi qiymati
1.	TIA mustaqil bosqich sifatida	0,15
2.	TIHK mustaqil bosqich sifatida	0,15
3.	Loyihalar eskizi (foreskiz) va loyiha konsepsiyasi mustaqil bosqich sifatida	0,2
4.	Obyektlarni 3D formatdagi interyer, eksteryer va bosh planlarni bajarish mustaqil bosqich sifatida	0,2
5.	Loyiha va ishchi hujjatlar chizmasi bo'yicha ikki bosqichli ishchi loyihalash:	1,0

	a) loyiha	0,2	0,4
	b) ishchi hujjatlar	0,8	0,6
6.	TIHK (TIA) va ishchi hujjatlar chizmasi bo'yicha ikki bosqichli ishchi loyihalash:	1,0	
	a) TIHK (TIA)	0,2	0,3
	b) ishchi hujjatlar	0,8	0,7
7.	Ishchi loyiha davridagi bir bosqichli loyihalash	1,0	
8.	Tanlov hujjatlarining texnikaviy qismini ishlab chiqish	0,1	

Loyiha-tadqiqot ishlarining qiymatini aniqlash tartibi to'g'risidagi nizomga
5-ILOVA

Qurilishning taxminiy qiymatini aniqlashga doir qisqacha tavsiyalar

Loyiha-tadqiqot ishlari qiymatini shakllantirish maqsadida qurilishning qiymatini aniqlashda quyidagi tavsiyalar qo'llaniladi:

1-variant. Qurilishi mo'ljallangan obyektning respublika hududlari bo'yicha quvvatlar bir birligini (1 kv m., o'quvchi o'rni, koyka va faoliyat sohasidan kelib chiqqan holda boshqalar) qurishning preyskurant qiymatlari to'plamlari.

2-variant. Analog obyektlar.

3-variant. Qurilishning yirik hisobda olingan smeta ko'rsatkichlari.

4-variant. Loyiha-tadqiqot hujjatlari ishlab chiqishning dastlabki bosqichlarida aniqlab olingan iqtisodiy ko'rsatkichlar.

Mazkur variantlarda nazarda tutiladigan qiymatlar joriy vaqtga nisbatan qo'llaniladi. Bunda narxlar indeksi o'zgarishini hisoblab chiqish uchun asosiy tuzilmaviy xarajatlar quyidagi ulushli miqdorda (foizlarda) olinadi (uskunalarsiz):

mehnat haqi — 0,2;

materiallar — 0,6;

mashinalardan foydalanish — 0,2;

Narxlar indeksi o'zgarishi quyidagicha olinadi:

mehnat haqi to'lovi xarajatlariga — joriy hisoblash davridagi bazaviy hisoblash miqdorining normativlar va analoglarini ishlab chiqish davridagi bazaviy hisoblash miqdoriga nisbati;

materiallarni xarid qilish xarajatlariga — material-buyumlarning (beton, g'isht, metall, yog'och konstruksiyalar va boshqalar) joriy hisoblash davrdagi narxlarining normativlar, analoglarni ishlab chiqish davridagi shu materiallar narxlariga nisbati;

mashinalardan foydalanishga — joriy hisoblash davrdagi yoqilg'i materiallar narxlarining normativlar, analoglarni ishlab chiqish davridagi narxlariga nisbati.

Jihozlar va uskunalarning qiymati buyurtmachi, prays-varaqlar, kataloglar, birja xabarnomalari yoki haqqoniy axborotning boshqa manbalaridan olingan ma'lumotlarga ko'ra aniqlanadi.

Loyiha-tadqiqot ishlarining qiymatini aniqlash tartibi to'g'risidagi nizomga
6-ILOVA

Loyiha-tadqiqot ishlarining qiymatini hisoblashda ko'zda tutilmagan ishlar qiymatini aniqlash mezonlari

T/r	Ishlar nomi	Hisoblanadigan qiymat darajasi, qurilish qiymatiga nisbatan % da				
		Qurilishning joriy narxlardagi qiymati (bazaviy hisoblash miqdorida)				
		800 baravarigacha	800 baravaridan 1500 baravarigacha	1500 baravaridan 10000 baravarigacha	10000 baravaridan 50000 baravarigacha	50000 baravaridan 200000 baravarigacha
1.	Maxsus yordamchi inshoot, moslamalarga ishchi chizmalarni ishlab chiqish. Konstruksiyalari va ishlarni bajarish usullari o'ta murakkab bo'lgan obyektlarni loyihalashdagi moslamalar va qurilmalar	0,7	0,56	0,45	0,36	0,28
2.	Zavodda ishlab chiqarilgan metall konstruksiyalar va texnologik quvur o'tkazgichlarning mufassal chizmalarini, shuningdek andozasiz va nostandart jihozlarni ishlab chiqishga bo'lgan konstruktorlik hujjatlarni ishlab chiqish (shu jihozlanishga boshlang'ich talablarni tuzish bundan mustasno)	Konstruktorlik hujjatlarini ishlab chiqishga taalluqli bo'lgan to'plamlar bo'yicha				
3.	Qurilish ustidan mualliflik nazorati, loyihalarni ishlanma boshlanishidan amalga tatbiq etilishining oxirigacha olib	Loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqish qiymati doirasida				

	boriladigan texnikaviy kuzatuvi					
4.	Loyiha-tadqiqot hujjatlariga ekologik ilova materiallarini ishlab chiqish	O‘zbekiston Respublikasi Qurilish vazirligining shu sohaga oid qabul qilgan normativ hujjatlari asosida				
5.	Buyurtmachi topshirig‘iga binoan qo‘shimcha ishlarni bajarish: a) birlamchi-ruxsat beruvchi hujjatlarni shakllantirish;	Umumiy holda loyihalash tashkilotining ijrochilariga (ishlab chiqarish xodimlariga) to‘lashga rejalashtirilgan mehnat haqi fondidan kelib chiqqan holda mehnat xarajatlariga ko‘ra hisoblanadi (1-izoh)				
	b) topografiya (geodeziya), geologiya ishlari;	O‘zbekiston Respublikasi Qurilish vazirligining shu sohaga oid qabul qilgan normativ hujjatlari asosida				
	v) ishga tushirish kompleksini alohida hisoblash;	0,7	0,56	0,45	0,36	0,28
	g) loyihalash topshirig‘ini shakllantirishga zarur bo‘lgan loyihalashdan oldingi ishlar majmuasi (shu jumladan, qurilish maydonchasi va birlamchi-ruxsat beruvchi hujjatlarni o‘rganib chiqish, buyurtmachi takliflarini ko‘rib chiqish hamda loyihalash topshirig‘ini tuzish)	0,05	0,04	0,032	0,026	0,021
d) loyihalash vaqtida dastlabki ma’lumot sifatida qo‘llaniladigan ilmiy-tadqiqotchilik va tajriba-eksperimental amaliy ishlar, ilmiy va ilmiy texnikaviy asoslamalar	O‘zbekiston Respublikasi Qurilish vazirligining shu sohaga oid normativ hujjatlari asosida					
6.	Texnik ko‘rik va o‘lchov ishlari	Ijrochilariga (ishlab chiqarish xodimlariga) to‘lashga rejalashtirilgan mehnat haqi fondidan kelib chiqqan holda mehnat xarajatlariga ko‘ra hisoblanadi (1-izoh)				

Izohlar:

1. Mehnat xarajatlari bo‘yicha hisob-kitob quyidagi formula bo‘yicha hisoblanadi:

$S_p = C_i X N_c$, bunda:

S_p — joriy narxlardagi qiymat;

C_i — berilgan ishni bajarish uchun ijrochilarga (ishlab chiqarish xodimlariga) to'lashga rejalashtirilgan mehnat haqi fondi;

N_c — qiymat normativi, loyihalash tashkilotida hisoblangan yillik hajmning rejaga ko'ra ijrochilarga (ishlab chiqarish xodimlari) to'lanadigan ish haqiga bo'lgan nisbatda aniqlanadi. Avvalgi yil uchun yillik balans hisobotining moliyaviy natijalari ko'rsatkichlariga muvofiq belgilash tavsiya etiladi.

2. Hisoblash mezonining oraliq miqdorlari gorizontaldagi bir-biriga eng yaqin bo'lgan ikkita ko'rsatkich interpolatsiya yo'li bilan aniqlanadi.

Loyiha-tadqiqot ishlarining qiymatini aniqlash tartibi to'g'risidagi nizomga
7-ILOVA

Loyiha-tadqiqot ishlari qiymatini aniqlash namunasi

Loyihalash obyekti: tozalash inshootlariga ega bo'lgan garaj.

Bosqich — "Ishchi loyiha".

Maydonchanning hisob bo'yicha zilzilaga chidamliligi — 9 ball.

1. Loyihalash obyekti va qurilish murakkabligi darajasining yagona tasnifiga ko'ra obyektning murakkablik darajasi — II.

2. Mazkur Nizomning 5-ilovasiga muvofiq qurilishning taxminiy qiymati 510,0 mln. so'mni tashkil qiladi.

3. Mazkur Nizomning 3-ilovasiga ko'ra vertikal qatordagi bir-biriga eng yaqin bo'lgan ikkita ko'rsatkich interpolatsiya yo'li bilan loyiha-tadqiqot ishlari qiymatining hisoblash mezoni aniqlanadi.

Bunda:

Bazaviy hisoblash miqdorining 1 000 baravarigacha tafovut 5,0 % darajasiga mos keladi;

Bazaviy hisoblash miqdorining 2 500 baravarigacha tafovut 4,7 % darajasiga mos keladi.

Interpolatsiya yo'li bilan topilgan 510,0 mln. so'm miqdoridagi hisoblash mezoni 4,74 % darajasiga mos keladi.

4. Obyekt qurilishining joriy narxlardagi qiymati — 510,0 mln. so'm x 4,74 % x 1,2 = 29,0 mln. so'm.

5. Loyihalash topshirig'iga ko'ra ishga tushirish kompleksini alohida hisoblash talab etiladi.

Mazkur Nizomning 7-ilovasi 5-bandiga muvofiq tegishli hujjatlarni ishlab chiqishga hisoblash mezonini gorizontaldagi bir-biriga eng yaqin bo'lgan ikkita ko'rsatkich interpolatsiya yo'li bilan aniqlanadi.

Bunda:

Bazaviy hisoblash miqdorining 800 baravarigacha tafovut 0,7 % darajasiga mos keladi;

Bazaviy hisoblash miqdorining 800 dan 1500 baravarigacha tafovut 0,56 % darajasiga mos keladi.

Interpolatsiya yo‘li bilan topilgan 510,0 mln. so‘m miqdoridagi hisoblash mezonini 0,659 % darajasiga mos keladi.

6. Ishga tushirish kompleksini alohida hisoblash ishlari qiymatini hisoblab chiqamiz:

$510,0 \text{ mln. so‘m} \times 0,659\% = 3,36 \text{ mln. so‘m}$

7. Ishchi loyiha ishlab chiqilishining to‘liq qiymatini hisoblaymiz:

$29,0 + 3,36 = 32,36 \text{ mln. so‘m}$, bunda:

29,0 mln. so‘m — obyekt qurilishining joriy narxlardagi qiymati;

3,36 mln. so‘m — ishga tushirish kompleksini alohida hisoblash qiymati.

(Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 09.09.2019-y., 10/19/3180/3715-son; Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 28.07.2021-y., 10/21/3313/0724-son)